

AMALIY SAN'ATDA BEZAK MAVZULAR TALQINI



Eshmamat Xaitov

Kafedra mudiri, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19722043>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq amaliy san'ati namunalari tarixan shakllangan bezak mavzularining rivojlanish dinamikasiga oid masalalar qamrab olingan.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, badiiy bezak, an'ana, samoviy, geometrik, antropomorf, zoomorf, onitomorf, ramz.

Abstract. The article covers issues related to the dynamics of the development of historically formed themes in the samples of Uzbek folk applied decorative art.

Key concepts: applied art, tradition, celestial, geometric, anthropomorphic, zoomorphic, onythomorphic, symbol.

O'zbekiston amaliy san'atida bezaklar mavzularini o'ziga hosligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Manbalarda qayd etilishicha, naqsh bezaklarida geometrik (kosmogonik), zoomorf, antropomorf tasvirlarning har biri o'zining chuqur ramziy ma'nosiga ega [1.c.193]. Vatanimiz turli hududlarida istiqomat qiluvchi mahalliy aholi e'tiqodlari, og'zaki ijodi va miqlari bilan bog'liq holda vujudga kelgan tasvir elementlari bir biridan farqlanadi [2.C.22]. Cho'l hududlarida istiqomat qiladigan ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xalqlar maishiy buyumlarida zoomorf tasvirlar yetakchi o'rin egallaydi. Kigizlar, gilamlar, kashtachilik namunalariidagi naqsh bezaklarida mahalliy aholi tomonidan muqaddaslashtirilgan cho'l hayvonlari, qushlar, parrandalar va sudralib yuruvchi jonzodlarning o'ziga hos ramziy tasvirlari ishlanib kelinadi.

O'zbek xalq amaliy san'atda antropomorfik va zoomorf mavzuga doir bezak namunalariida "qismlarga ajratilgan butun" tamoyiliga amal qilinadi. Unda hayvonot olamiga oid yaratilgan yaxlit kompozitsiyalarda [3.63b] mazkur qoidaga muvofiq jonzodlarning butun ko'rinishi o'rniga gavdasining ayrim unsurlari yordamida badiiy yaxlitlik g'oyasi aks ettiriladi. Maishiy buyumlardagi naqshlarning tasvir tarkibi ayrim hayvonlar, qushlar va hasharotlarning tana qismlari bilan munosib uyg'unlashtiriladi. Mazkur tamoyilga amaliy bezak san'atining deyarli barcha turlarida amal qilingan.

Qism butunlikning ifodasi sifatidagi tamoyili qoraqalpoq amaliy san'ati motivlarida ham kuzatiladi. I.Bogoslovskaya mahalliy ayollar liboslarining tashqi bezagida cho'l hayvonlari tasviri ramziy ko'rinishda ishlanganligini e'tirof etadi. Ularning aksariyatida turli afsonaviy hayvonlar, parrandalar va hasharotlarning tana a'zolaridan biror qismi ishlangan. Bu bevosita mazkur jonzodlarda ilohiy qudrat borligiga bo'lgan ishonch bilan bog'liq. Bunda chuqur ma'no bor. Zero, ko'chmanchi va yarim o'troq xalqlar maishiy hayotida ilk e'tiqodlar – totemizm, animizm, shomonlik va tangrichilik bilan bog'liq qarashlar ham ma'lum ma'noda saqlanib qolgan. Mazkur qarashlar ularning san'atiga ham chuqur kirib borgan. Turli hayvonlarning

muqaddaslashtirilishi bevosita totemizmga oid tasavvurlarga borib taqalsa, ularning suyaklari, qushlarning pati, tana a'zolarini ilohiy qudratga ega deb, tumor sifatida taqib yurilishi animizm, fetishizm va shomonlikka oid e'tiqodlar bilan bog'lanadi. Qoraqalpoq amaliy san'atini tadqiq etgan olimaning bo'ri totemi va uning ilohiyashtirilishi mohiyati haqidagi mulohazasi o'rinlidir. Olimaning yozishicha, bo'rining tirsak suyagi butun suruvni bo'rilar va o'g'rilardan himoya qiladi, deb ularni ot egariga taqib yurishgan, bo'rining tizzasi "kosasi" suyak kasalliklari va suq kirishi, ko'z tegishidan saqlashi, ukkining boshi, oyoqlari va pati yovuz ruhlardan himoya qiladi, deb ularni o'tovga, bolalarning beshigiga osib qo'yishganini qayd etgan [6.C.15]. Bundan ko'rinadiki, ko'chmanchi xalqlar hayotida bo'ri nihoyatda muqaddas jonzod hisoblangan. Butun qabilaning va chorvaning himoyachisi, totemi sifatida e'zozlangan. Ayrim jonzotlar-it, sichqon va qushlarning oyoq izi ham ilohiy ta'sir kuchga ega deb qaralgan. "It tovon" naqsh bezagi mazkur uy hayvonining naqadar muqaddaslashtirilganligining yorqin ifodasi sifatida hozirda ham qo'llanilib kelinadi.

Amaliy san'at namunalarida ornitamorf (parranda-darrandalarga hos) mavzular ham uchraydi. Bu bevosita xalq orasida inson vafotidan so'ng uning ruhi qushga (kabutar) aylanib, osmonga chiqib ketishi haqidagi miflar bilan bog'liq. Laylak odamlarga farzand olib keladi, degan aqida shu tarzda yaratilgan. Bularning barchasi olam shajarasining uch asosiy negizini tashkil etadi. Ular orasida afsonaviy qushlar tasviri ham uchrab turadi. Baxt, omad keltiruvchi ilohiy "Anqo"ning ramziy naqsh elementi tasviri kulolchilikda, naqqoshlikda, misgarlikda kashtachilik va ganch o'ymakorligida kuzatiladi. Usta kulollar yasagan laganlarning ayrimlarida mazkur ilohiy qushning ajoyib obrazlarini yaratganlar. Usta Bobo Boyniyozov, Uzoqboy Shermatov, Muxiddin Rahimov va boshqalar ishlarida uning yorqin namunalari yaratilgan.

Buxoro – Samarqand badiiy kulolchilik markazlari uslubining ichki omillari ko'proq "Afrosiyob" sopoli an'analariga asoslanadi. Ammo, G'ijduvon kulolchiligining o'ziga hos jihatlaridan biri, unda qushlar tasvirining qo'llanishidir. Ko'pincha ustalar lagan o'rtasiga tovusning soddalashtirilgan tasviri yoki uning dum qismini joylashtirishadi. "Dumi burgut", "murgi safid", "boyqush", "guli tovus", "ming oyoq" singari tasvirlar shunday kompozitsiyalardandir. Ular bir qarashda xuddi gulsimon naqshga o'xshab ketishi, G'ijduvon kulolchiligiga xos qadimiy an'anadir. Aka-uka Nazrullayevlar mahalliy kulollik naqshlarini juda mukammal o'zlashtirganlar. Ular yaratgan buyumlarda yangilikni his etish, his-tuyg'ularni bevosita bera olish, an'anaviy shakllarga erkin munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar aniq ko'rinadi. Ular ijodida o'ziga hoslikka intilish yorqin namoyon bo'ladi. G'ijduvon an'anaviy yo'nalishini saqlagan holda unga qo'shimcha yangilik taqdim etadilar. Mazkur jihatlariga ko'ra Nazrullayevlar yaratgan sopol buyumlar ham an'anaviy, ham zamonaviydir [3.63 b].

Amaliy san'at namunalarida kosmogonik-samoviy jismlar bilan bog'liq bazaklar alohida bir turkumni tashkil qiladi. Ularda samo, quyosh, oy, yulduz kabilarning uslublashtirilgan ramziy tasvirlari ko'zga tashlanadi. O'simliksimon naqsh elementlaridan tashkil topgan qadimiy gul-"yulduz gul" naqsh kompozitsiyasi keng tarqalganligi ham buni tasdiqlaydi.

Mayda plastikada loydan yasalgan o'yinchoqlar aslida qadimgi koroplastikadan kelib chiqqan bo'lib, ularning mavzusi mahalliy aholi afsonalari va ertaklariga borib taqaladi [7.20 b]. Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi O'ba qishlog'ida Hamrobibi Rahimova yasagan o'yinchoqlar-hushtaklarda afsonaviy jonzotlar, turli hayvonlar qo'rinishida ishlangan. Ot (ba'zan ot mingan odam), qo'chqor, sher bolasi, tovuq, popishak, cho'l chumchug'i deb nomlangan sopol o'yinchoqlari ishlanish texnikasi va uslubi bilan alohida ajralib turadi. Sharofat Obidova yasagan o'yinchoq hushtaklarni jamlab, ajoyib kolleksiya hosil qilgan. Unda qush, o'rdak, ho'kiz, tuya, echki, ot, fil mingan odam obrazlari bolalarga mos ertakona uo'rinishgda gavdalanitirilgan. Barcha

o‘yinchoqlar maqsaddan kelib chiqib, yorqin tusli yo‘l-yo‘l chiziq, hol-hol nuqtalar bilan bezatilgan[8.C.18]. Bu esa yosh bolalarning unga nisbatan qiziqishlarini yanada oshishiga xizmat qilgan.

Kashtalarda samoviy (kosmogonik) motivlar ham alohida o‘rin tutadi. “Oy palak”, “Yulduz palak”, “Tog‘ora palak” kompozitsiyalari buning yorqin namunasi. Qadimiy o‘simliksimon naqsh tasvir elementi bo‘lmish “yulduzgul” aynan yulduz shaklidagi naqsh kompozitsiyasi judayam ko‘p uchraydi. “Yulduz nusxa” naqsh bezagi hozirgi kunda keng tarqalgan.

Binafsha Nodir O‘zbekiston kashtado‘zligining Toshkent va Pskent markazlarida katta hajmdagi buyumlar – so‘zana mahalliy aholi oypalak, yulduzpalak deb atalishini, ularning markaziy qismidagi uyg‘un joylashgan to‘ptbarggul quyosh yoki oy ramzlarini anglatishini qayd etadi. Bunday bezaklardan iborat kompozitsiyalar “oypalak”, deb ataladi. So‘zananing mazkur bezak turida samoviy koinot manzarasi o‘ziga xos uslubda tasvirlangan.

Ba‘zi palaklar bezagining ichki tomoniga yulduzsimon ko‘rinishdagi ramziy naqshlar tikilgan. Bunday to‘ptbarggulli kashtado‘zlik namunalari yulduzli osmonni aks ettirgani bois B.Nodir xalq orasida yulduzpalak deb atalishini to‘g‘ri ta’kidlab o‘tadi. Vatanimizning Samarqand, Nurota, Buxoro, Jizzax kabi markazlar kashtado‘zlari ham so‘zanani bezashda quyosh va yulduz ko‘rinishidagi naqsh bezaklari qo‘llanilishi, lekin Toshkent kashtado‘zligidagina ushbu-naqshu nigorlar qolgan bezaklarga nisbatan ustun mavqega ega bo‘lgan va samoviy jismlar nomi bilan atalganligi e‘tiborlidir”[4.13 b].

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, amaliy san‘ati namunalari bezak naqshlarning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Ularning o‘ziga xosligi - qism butunlikning ifodasi sifatida tasvirlanishida kuzatiladi. Shaharlarda istiqomat qiluvchi va cho‘l hududlarida ko‘chmanchi va yarim o‘troq tarzda hayot kechiruvchi aholi amaliy san‘atida naqshlar bezaklarida ayrim farqli jihatlar mavjud. Bu bevosita mahalliy aholining diniy-kult va mifo-epik qarashlari bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Хакимов А.А. Прикладное искусство Узбекистана: традиции и инновации. - Т.:ЮНЕСКО.,2013. -С.193.
2. Гюль Э.Ф. Проблема этнокультурных взаимодействий в античном средневековом искусстве узбекистана. -//Специальность 17.00.04-изобразительное и декоративно-прикладное искусство. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора искусствоведение. -Т., 2002.
3. O‘zbekiston san‘ati (1991-2001 yillar). -Т.: Sharq., 2001. -B.63.
4. Binafsha Nodir. Qo‘ng‘irotlar gilamlarining uslubiy xususiyatlari. -//San‘at. 2016.№2. -B.13.
5. Nasirova Z.X. XX asr-XXI asr boshlari o‘zbekiston janubiy hududlarining an‘anaviy kashtachiligi. -//17.00.04-Tasviriy va amaliy bezak san‘ati ixtisosligi bo‘yicha san‘atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissetatsiya avtoreferati. Т., 2010.
6. Bogoslovskaya I. Qoraqalpoq naqsh san‘atida zoomorf unsurlar. -//San‘at. 2009. №2. -B.15.
7. Akilova K.B. Mustaqillik davrida o‘zbekiston an‘anaviy badiiy hunarmandchiligi. -//San‘at.,2016. №2. -B.20.
8. Levteyeva L., Qayumova D., Sopol buyumlarning yorqin jilolari (O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi to‘plamidan). -//San‘at.,2018. №3. -B.14-18.